

## **VILOYATDA SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYALASH ORQALI MAHSULOT EKSPORTINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI**

**Omonova Nafisa Qahramon qizi**

[nafisaomonova0112@gmail.com](mailto:nafisaomonova0112@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada viloyat sanoat korxonalarida faoliyatni diversifikatsiyalash jarayonining eksport ko'rsatkichlariga ta'siri ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – hududiy sanoat tarkibini modernizatsiyalash, ishlab chiqarish xilma-xilligini kengaytirish va qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish orqali eksport salohiyatini mustahkamlashning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida statistik tahlil, qiyosiy tahlil va ekspert baholash usullari qo'llanilib, viloyatdagi yetakchi korxonalarining ishlab chiqarish ko'rsatkichlari o'rganildi. Natijalar diversifikatsiyalash sanoatning barqaror rivojlanishi, tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikning ortishi hamda eksport geografiasining kengayishiga xizmat qilishini ko'rsatdi.

**Kalit so'zlar:** sanoat korxonalarini, diversifikatsiya, eksport salohiyati, hududiy iqtisodiyot, qo'shimcha qiymat, innovatsion rivojlanish, eksport geografiasini, raqobatbardoshlik, modernizatsiya, logistika infratuzilmasi.

### **Kirish**

So'nggi yillarda mamlakatimizda sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini kengaytirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Global iqtisodiy makonda kechayotgan raqobatning kuchayishi, tashqi bozorlar talabining o'zgaruvchanligi hamda iqtisodiy xavfsizlikning mustahkamlanishi sanoat korxonalarini faoliyatini diversifikatsiyalash zaruratini yanada oshirmoqda. Diversifikatsiya jarayoni korxonalarining bir yo'nalishdan qaramligini kamaytirish, mahsulot turlarini kengaytirish, yangi bozor segmentlariga chiqish hamda ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Viloyat miqyosida sanoatni rivojlantirish va eksport ko'rsatkichlarini oshirishda korxonalar faoliyatining diversifikatsiyalash darajasi muhim o'rin tutadi. Chunki hududiy sanoat tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega,

eksportbop mahsulotlar ulushining oshishi nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlariga, balki investitsion jozibadorlik, bandlik darajasi va aholining farovonligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, viloyat sanoat korxonalarini diversifikatsiyalash mexanizmlarini chuqur o'rganish, ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

### **Material va metodlar**

Tadqiqot viloyat sanoat korxonalarida diversifikatsiya jarayonining eksport faoliyatiga ta'sirini chuqur tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, quyidagi kompleks ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi: Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish tuzilmasi, mahsulot segmentlari va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish ulushi o'rganildi. Ushbu usul korxonalar ichki tuzilmasining qaysi bo'g'inlari diversifikatsiyaga eng mos kelishini aniqlash imkonini berdi. So'nggi 5–7 yillik eksport ko'rsatkichlari asosida dinamik modellar tuzilib, diversifikatsiya jarayonining istiqboldagi rivojlanish tendensiyalari prognoz qilindi. Ushbu yondashuv kelajakdagi eksport hajmini bashoratlashda samarali bo'ldi. Hududdagi sanoat korxonalarini mahsulot turi, bozor yo'naltirish darajasi, texnologik imkoniyatlari va yetkazib berish zanjiri bo'yicha klasterlarga bo'lindi. Bu diversifikatsiya uchun ustuvor bozor segmentlarini aniq belgilashga yordam berdi. Sanoat korxonalarini rahbarlari, eksport bo'yicha mas'ullar va iqtisodiy tahlilchilar bilan yarim tuzilmaviy intervyular o'tkazilib, diversifikatsiyaning amaliy holati, mavjud cheklovlar va istiqboldagi imkoniyatlar bo'yicha chuqur fikrlar yig'ildi.

### **Natijalar**

Diversifikatsiya darajasining oshishi eksport ulushining barqaror o'sishiga olib kelmoqda. Yig'ilgan ma'lumotlar viloyatda mahsulot turlarining ko'payishi natijasida eksportga chiqarilayotgan yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ulushi yil sayin o'sib borayotganini tasdiqladi. Xususan, diversifikatsiya qilingan korxonalarda eksport hajmi o'rtacha 1,4–1,7 baravar yuqori ekani aniqlandi. Innovatsion faol korxonalar eksport bozorlariga kirishda ustunlikka ega. Innovatsion texnologiyalarni joriy etgan korxonalar yangi bozor segmentlarini egallashda nisbatan tezroq harakat qilgan. Ularning mahsulot sifati xalqaro standartlarga mos bo'lgani uchun eksport geografiyasi ham sezilarli kengaygan. Klasterlash asosida tahlil qilingan korxonalar o'rtasida mahsulot xilma-xilligi kuchli farqlanadi. Klaster tahlili natijasida viloyat sanoat korxonalarini asosan uch guruhga ajraldi: diversifikatsiya darajasi yuqori bo'lgan innovatsion ishlab chiqaruvchilar; o'rta darajada diversifikatsiyaga ega korxonalar;

asosan bir turdagi mahsulotga ixtisoslashgan korxonalar. Birinchi guruh korxonalar eksportning eng katta ulushini egallashi aniqlangan. Mahalliy xomashyo bazasi diversifikatsiya imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Tahlillar ko'rsatishicha, viloyatda mavjud xomashyo resurslari asosida yangi mahsulot yo'nalishlarini ochish imkoniyati yuqori.

### **Muhokama**

Tadqiqot natijalari viloyat sanoat korxonalarida diversifikatsiya jarayonining eksport faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi. Diversifikatsiyaning yuqori darajada tashkil etilgan korxonalarda eksport hajmi va mahsulot sifati barqaror o'sayotgan bo'lsa, diversifikatsiya past bo'lgan korxonalarda eksport ko'rsatkichlari cheklanganligicha qolmoqda. Bu holat korxonalar rivojida diversifikatsiyaning strategik rolini tasdiqlaydi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, innovatsion texnologiyalarni joriy etish diversifikatsiya jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Innovatsion salohiyati yuqori korxonalar mahsulot turlarini tezroq kengaytirib, xalqaro bozor talablariga mos mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. Natijada bunday korxonalar eksport bozorlariga kirishda ustunlikka ega bo'ladi. Bu esa innovatsion modernizatsiyaning viloyat sanoat strategiyasida alohida ahamiyat kasb etishini anglatadi. Logistika infratuzilmasi rivojlanish darajasi diversifikatsiyaning samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tahlillar ko'rsatdiki, logistika xarajatlari yuqori bo'lgan hududlarda korxonalar eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarishda ehtiyotkorlik bilan yondashadi, bu esa ularning raqobatbardoshligini pasaytiradi. Shuning uchun transport yo'laklari, logistika markazlari va eksport terminalarini rivojlantirish viloyat eksport siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim. Klasterlash asosida olib borilgan tahlillar korxonalar o'rtasida diversifikatsiya imkoniyatlari bo'yicha katta tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Bir guruh korxonalar yangi mahsulot yo'nalishlariga faol o'tayotgan bo'lsa, boshqa korxonalar hali ham bir yo'nalishga qattiq bog'langan.

### **Xulosa**

Tadqiqot natijalariga asoslanib, viloyat sanoat korxonalarida diversifikatsiya jarayonini chuqurlashtirish eksport salohiyatini oshirishning eng muhim omillaridan biri ekanligi aniqlandi. Diversifikatsiya korxonalar faoliyatining nafaqat mahsulot turlarini kengaytirishini, balki ishlab chiqarish jarayonlarining texnologik yangilanishini, innovatsion yechimlarning joriy etilishini va xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini ham kuchaytirishini ko'rsatdi. Tadqiqot

shuni tasdiqladiki, eksport faoliyati samaradorligining oshishi bevosita korxonalarining innovatsion rivojlanish darajasi, logistika infratuzilmasi, davlat tomonidan yaratilayotgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalanish intensivligi hamda mahalliy xomashyo resurslaridan oqilona foydalanish bilan chambarchas bog'liq. Shuningdek, klasterlash asosida aniqlangan tafovutlar korxonalar uchun diversifikatsiyalashgan yondashuvlarning manzilli qo'llanilishi zarurligini ko'rsatadi. Viloyatda eksport hajmini oshirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi: Innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va ishlab chiqarishning texnik modernizatsiyasini jadallashtirish. Logistika infratuzilmasini rivojlantirish, transport xarajatlarini qisqartirish va eksport zanjirlarini optimallashtirish. Mahalliy resurslarni chuqur qayta ishlashga asoslangan mahsulot diversifikatsiyasini kengaytirish. Eksportni qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalanishni kuchaytirish, jumladan, sug'urtalash, subsidiyalar va imtiyozli kreditlar.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sanoat tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari va Qarorlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. "Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi va eksport ko'rsatkichlari" statistik to'plami. — Toshkent, 2023–2024.
3. Porter, M. The Competitive Advantage of Nations. — New York: Free Press, 1990.
4. Kotler, P., Armstrong, G. Principles of Marketing. — London: Pearson, 2018.
5. Dorofeev, V.V. Diversifikatsiya jarayonlarining iqtisodiy samaradorligi. — Moskva: INFRA-M, 2019.
6. Xamidov, A., & Qodirov, B. Sanoat korxonalarida modernizatsiya va diversifikatsiya yo'nalishlari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy jurnali. — 2022.
7. Ulmasov, B. Hududiy iqtisodiyotda eksport salohiyati va uni oshirish mexanizmlari. — Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2021.
8. World Bank. Diversification and Export Competitiveness in Emerging Economies. — Washington D.C., 2020.